



O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVYI-MA'RIFIY BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

**To'rayeva Azizaxon
Abdujalol qizi**

*Bo'stonliq turizm va madaniy meros texnikumi
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish orqali ularning dunyoqarashi, shaxsiyatini shakllantirish bugungi kunda ta'lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, milliy g'oya, mafkura, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, madaniy targ'ibot ishlari, ommaviy targ'ibot

Dolzarblik. Ilm-fanimizning hozirgi zamondagi dolzarb vazifalaridan biri yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jihatdan tarbiyalash, milliy g'oyamizni nazariy jihatdan yanada takomillashtirishdan iborat.

O'quvchi-yoshlar ongiga, milliy g'oyani singdirish orqali yoshlarning dunyoqarashi, shaxsiyatini shakllantirish bugungi ta'lim muassasalarining oldida turgan dolzarb masaladir.

Ma'naviy barkamol yosh avlod o'z xalqi, Vatan tarixi, buyuk siymolari, milliy va tarixiy qadriyatlari, urfodatlari, rasm-rusumlari, to'y-marakalari, ularning mohiyatini chuqur bilgan holda jahon adabiyoti, san'ati, madaniyati durdonalari bilan yaxshi tanish bo'lmog'i, kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixi davomida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan oshno bo'lmog'i darkor.

Bunda o'quvchi-yoshlarga ma'naviy va axloqiy tarbiya berishni tashkil etish, qalbiga chuqur singdirish va ularni rejalashtirib, doimo namunali olib borish talab qilinadi.

O'quvchi-yoshlarning ma'naviy va madaniy tarbiyasi masalasiga kompleks tarzda yondashish talab qilinadi.

O'quvchi-yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy va axloqiy ishlarning metodikasini yaxshi bilish mazkur sohadagi muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning garovidir.

Bilim maskanlarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi, eng avvalo, to'g'ri tuzilgan reja va tadbirlarga bog'liqdir.

Ma'naviy-axloqiy ishlarni tashkil etishda muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish va uni jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoshlar ongiga singdirishning ahamiyatini ochib berish;
- ma'naviy-axloqiy ishlarning yanada takomillashuvini ko'rsatish va bu masalada amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish;

- ma'naviy-axloqiy ishlarni tashkil etishda ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi, biri ikkinchisini inkor qilmasligi, tarbiyaviy jarayonda ulardan umumlashgan holda foydalanish mumkinligini tushuntirish va hokazo.

Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axboriy xurujlar ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish targ'ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun ham ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari qanday dastur va yo'nalish, qaysi ko'rsatma va qo'llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g'oyat muhim masala bo'lib turibdi.

Sharqona ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz yuksak madaniyat sarchashmasi hisoblanadi.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi tarbiya ko'rishga asoslangan intizomga qat'iy rioya qilish zarurdir.

Bu bola bilan doimiy muloqot, tushuntirish, muhokama qilish, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berish, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Ta'lim-tarbiya ayni paytda odamlar yoshi, o'sish darajasiga qarab ma'lum yo'nalish hamda mezonlarga ega bo'ladi.

Bu ta'lim-tarbiyaning andozaga bo'lgan ehtiyojini ham belgilaydi.

Demoqchimizki, ta'limning ham, tarbiyaning ham me'yori, mazmun mundariyasi, yo'nalish turlari, miqdori bo'ladi.

Odamzod o'zini taniy boshlagandan beri ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi.

O'z-o'zidan ma'lumki, xalq va Vatanning kelgusi istiqboli, taqdiri bugun o'quv maskanida ta'lim olayotgan avlodga bog'liq.

Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, saviyasi mamlakat iqtisodiyoti, siyosatining istiqbolini belgilaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'z kelajagini o'ylagan millat, mamlakat ma'naviy-ma'rifiy islohotlar orqali ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish, ular uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishni birinchi navbatda hal etilishi zarur bo'lgan vazifa deb biladi.

Tarbiyali bo'lish – bu, xulq-atvorni nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlardan saqlanish imkonini beradi.

Ma'lumki, tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e'tiqod va his-tuyg'ular hamda ularga asoslangan ma'naviy xulq-atvorni hosil qilishdir.

Demak, biz o'zimizning milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, teran aqlu - zakovat bilan bitilgan allomalarimizning o'gitlaridan o'z o'rnida foydalansak, albatta, farzandlarimiz vazmin, xushfe'l, odobli bo'lib tarbiya topadilar.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat

tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari.- Toshkent. "Yangi O‘zbekiston" 2021 yil 19 yanvar.

2. Azizxodjayeva N.N. Innovatsionnye i obrazovatelnye texnologii v podgotovke pedagogicheskix kadrov // Xalk ta’limi. - Toshkent, 2001. - №4.123-126 b.

3. Aliyev A. Ma’naviyat, kadriyat va badiiyat.- T.:Ma’naviyat,2020.- 630 b.

4. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. / Monografiya. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2014.